



HGT AKSIYADORLIK JAMIYATI

«HUDUDGAZ TOSHKENT»

gaz ta'minoti filiali

**TABIYIY GAZNI ULGURJI
ISTE'MOLCHILARGA
ETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH
SHARTNOMASI**

№12-16 / 516 -son

Iste'molchi nomi: SP. P. A. Tashkent bo'limi

Iste'molchining xos raqami 14600948

Faoliyat turi: Ushbu

20.01. 2022 yil

Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga etkazib berish va qabul qilish

ShARTNOMASI

2022 yil 20 yanvar №12-16/516-son

Nurafshon shaxar (shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi « JSP PA Tashkiloti » (Iste'molchi nomi)(keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari

bir tomondan hamda Nizom va 2022 yil 5 yanvar da berilgan 0319-11/91-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali (gaz ta'minoti tashkiloti nomi)(keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari M.R.AliEv ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I.ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga oshiradi.

1.2. Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihasiga muvofiq, gazdan foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, elektron gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda Etkazib beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha etkazib beriladigan gaz hajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 6000 kub.m, narxi 143600 ming so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Table with 4 columns: I chorak, II chorak, III chorak, IV chorak. Rows for mingkub.m, yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, avgust, sentabr, oktabr, noyabr, dekabr.

Etkazib beruvchi tomondan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistr va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va jifimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi ming kub metrni, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

Table with 4 columns: I chorak, II chorak, III chorak, IV chorak. Rows for mingkub.m, yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, avgust, sentabr, oktabr, noyabr, dekabr.

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Etkazib beruvchi tomondan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. Etkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomondan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

II. GAZNI ETKAZIB BERISH SHARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzda tabiiy gazni Etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Etkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yor doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Etkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgariganligi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

2.4. Etkazib beruvchi Iste'molchini gaz etkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistr va gaz quvurlarida yuz bergan avariya holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari);

g) shartnoma asosida Iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganda.

8.4. Etkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Etkazib beruvchidan etkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Etkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summami qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Etkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz etkazib berilganda, Etkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq Etkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPSIVYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korruptsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalariga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarini ham o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korruptsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishli sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

XI. FORS-MAJOR HOLATLAR

11.1. Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida, gazni qayta ishlash korxonalari va gaz qazib chiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek Engib bo'lmaz kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan, sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, er qimirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz Etkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabatlarni to'xtatish huquqiga ega bo'ladi.

11.2. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomaning kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda hamda taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

12.2. Budjet tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralidagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachiilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomaning bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

2022 yil « 20 » ol dagi
12-16/ 516 -son shartnomaga
ILOVA

Foydalanishga qabul qilingan gazdan foydalanish uskunalarini

RO'YXATI

Faoliyat turi: bulov

Kadastr №

Tabiiy gaz tarifi 660 sum 00 tiyin

№r	Korxonasi, uchastka, sex nomi	Agregatlar		Loyihaviy gaz sarfi, m.kub/soat	Gazni hisobga olish priborlarining turlari
		nomi	soni		
	<u>Turkumano</u>	<u>MT-4x</u>	<u>1</u>	<u>1,12 m³</u>	<u>CTF</u>
	<u>BA DUO</u>	<u>HON TAMP</u>	<u>1</u>	<u>4 m³</u>	
	<u>UNGOPASTAN</u>	<u>Botranov</u>	<u>1</u>	<u>0,14 m³</u>	
		<u>UNAGQ</u>			
		<u>820x</u>	<u>10x</u>	<u>0,95</u>	<u>0,95</u>
		<u>MTy-900</u>		<u>93,6</u>	

Kelishilgan:

Etkazib beruvchi

Rahbar: M.R. Aliyev (F.I.Sh.)

Imzosi

Muxandis

Ijrochi

Iste'molchi

Ushbu shartnomani haqqoniyligini tasdiqlovchi mas'ul filial xodimlari

Energiya manbalari balansini tuzish bo'limi boshlig'i _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

Yuridik shaxslarga tabiiy gazni etkazib berishni nazorat qilish bo'limi boshlig'i _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

O'z.Res.Vaz.Max. 22-son va O'z.Res.Pr. 2020 yil 24 sentyabr PQ-4840 qarori ijrosi talabiga rioya qilish sharti bilan.

Metrologiya xizmatini boshlig'i _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

Bo'lim boshlig'i _____ (F.I.O.) _____ (imzo va muhr) _____ (sana)

Bosh muxandis _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

Ulgurji iste'molchilar bilan ishlash xizmatini muxandisi _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

Metrologiya xizmatini muxandisi _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

Foydalanish xizmatini ustasi _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

Hisobchisi _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

Tuman gaz bo'limi TX va MM muxandisi _____ (F.I.O.) _____ (imzo) _____ (sana)

